

“TERAPEVTIK BEMORLARNI ASBOB-USKUNALAR YORDAMIDA TEKSHIRISH.”

Tayyorladi: Chirchiq innovatsion tibbiyot va salomatlik texnikumi

maxsus fanlar bosh o'qituvchisi

Toshmetova Dilfuza Valivoyevna

Annotatsiya

Ushbu ma'ruzada zamonaviy tekshirish usullari, asbob uskunalar yordamida bemorlarni tekshirish, zamonaviy diagnostika usullari, MRT, MSKT, Rentgen, mamografiya, EKG, endoskopiya apparatlari haqida umumiy ma'lumotlar, nazorat savollari, vaziyatli masalalar berilgan.

Kalit so'zlar: rentgenologik, endoskopik, UTD, EKG, FKG, ExoKG, DoplerKG, pikfluometriya, kompyuter tomografiya

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Bemorlarni tekshirish usullari haqida ma'lumot. O'quvchilarga diagnostikaning turlari va ularning mohiyatini o'rgatish. Tibbiy asbob-uskunalar bilan tekshirish usullarini (rentgenologik, endoskopik, UTD, EKG, FKG, ExoKG, DoplerKG, kompyuter tomografiya) va ularni terapevtik kasalliklarga tashxisi haqida o'quvchilarga tushuntirish.

Reja:

1. Rentgenologik tekshirish.
2. Endoskopik tekshirish.
3. Ultratovush tekshirish.
4. Elektrokardiografiya, fonokardiografiya.
5. Kompyuter tomografiya.

6.Mamagrafiya tekshirish.

7.Karonagrafiya usuli

Rentgenologik tekshirish ikki hil bo`ladi: 1. Rentgenografiya-tekshirishlayotgan ob`ekt tasviri rentgen plyonkaga tushirib rasmini olish.

2. Rentgenoskopiya-ob`ekt tasvirini ekranda ko`rish. Rentgen nurlari 1896 yilda nemis olimi Rentgen Kashf etgan. Rentgenoskopiya usuli yordamida o`pka, yurak, yirik qon tomirlar, ovqat hazm qilish a`zolarining faoliyati o`rganiladi. Odamning tuqima va a`zolari turli zichlikda bo`lib, rentgen nurlarini turli darajada yutadi. Zich to`qimlar ekranga qora bo`lib tushadi. Havoli a`zolar, esa yorug` bo`lib tushadi. Suyuqliklar ham rentgen nurlarini ko`p yutadi va suyuqlikdan soya hosil bo`ladi. Zichligi jihatidan atrofdagi to`qimalardan, a`zolaridan farq qilmaydigan a`zolar rentgenologik tekshirilganda kontrast moddalar qo`llaniladi. **Flyurografiya**—qisqa muddatda ommaviy tekshirish usuli bo`lib, o`pkalarni rasmga olishdir. Bu usul bilan 1 soat mobaynida 100 tagacha odamni tekshirish mumkin.





Rentgenografiya usulida olingan rasmlar rentgenogrammalar deb ataladi. Rentgenogrammada zich to'qimalar yorug'i, yumshoq to'qimalar va havo qora bo'lib ko'rinadi. **Rentgenogramma** rentgenoskopiyaga nisbatan kichik o'zgarishlarni aniq tasvirini beradi. Rentgenologik tekshirishda tomografiya, kompyuter tomografiya bronxografiya, flyuroografiya, xoletsistografiya, uroografiya sistografiya usullaridan foydalaniladi.

Magnit-rezonansli-tomografiyasi-(MRT).

Magnit-rezonasli tomografiya tekshirish usuli yadro-magnitli rezonans prinsipiga asoslangan. Ayrim atom yadrolari, masalan, vodorod yadrosi bir jinsli magnit maydonida magnitga o'xshab harakatlanadi. Yadroli rezonans hosil qilish uchun odam tanasi atrofiga qisqa to'lqinli radio to'lqinlar yuboriladi. Magnit maydonida hosil bo'lgan energiya datchiklar yordamida registrasiya qilinadi.





--**Tomografiya**- biror a'zolning turli chuqurlikdagi ayrim qavatlarini rasmga olishga asoslanadi.



--**Kompyuter tomografiya** -tanani aylanma nurlantirish yo'li bilan a'zoning qavatma-qavat surati olinadi kompyuter ekraniga ta'sviri tushadi.



Kompyuter-tomografiyasi.

Kompyuter tomografiyasi (KT) zamonaviy giagnostik usul bo'lib, 1972 yilda G.Hounsfield, A.Sormak tomonidan ixtiro qilingan. Ularga bu ixtiro uchun 1979 yilda Nobel mukofoti berilgan. KT da rentgen nurlaridan foydalaniladi. Oddiy rengenografiyadan farqli ularoq, KT da odam tanasining ko'ndalang kesimi yuzasi roentgen nurlari yordamida suratga olinadi. Bunda odam tanasining har bir qavatini o'rganish mumkin. KT yordamida bosh miya, orqa miya, umurtqa pog'onasi, o'pka, ko'krak qafasi, jigar, buyrak, me`da osti bezi, buyrak usti bezi, aorta va o'pka arteriyalarini

tekshirish mumkin. 2000 yildan boshlab KTning yangi avlod turlari paydo bo`la boshladi, KT ning spiral kompyuter tomografiyasi-(SKT), multispiralkompyuter turlari mavjud.




Bronxografiya traxeya va bronxlarga kontrast modda yuborish yo`li bilan rasmga olish.



Xoletsistografiya o't pufagi va o't yo'llarining shakli xolati va funksiyasini o'rganish uchun o'tkaziladi. Organizmga rentgenokonstrast modda yuborib o't pufagi shu moddaga to'lganidan keyin xoletsistografiya-qilinadi.



Urografiya -buyrak va siydik yo'llarini rentgenologik tekshirish



Ekskretor urografiya kontrast modda (urografin) vena orqali yuborilib buyrak orqali ajralishi rentgenogramмага olinadi. **Retrograd urografiya** aseptika va antiseptika qoydalariga rioya qilib qovuqqa katetr kiritiladi va katetr orqali shprits yordamida kontrast modda 150-300 ml yuborilib urogramma olinadi.



Endoskopik tekshirish. “Endo”- ichki, “skopiya” - ko‘raman degan ma‘noni bildiradi. Endoskopiya yo‘li bilan ichi bo‘sh a‘zolar qizilo‘ngach, me‘da, 12 barmoq ichak, bronxlar, to‘g‘ri ichak, qovuq ko‘zdan kechiriladi. Endoskopiyaning o‘tkazish uchun maxsus asbob endoskop qo‘llaniladi. Endoskopdagi optik moslama ma‘lum bir a‘zoni ko‘zdan kechirib chiqishga, biopsiya qiluvchi moslama gistologik tekshirish uchun a‘zodan kichik bo‘lakcha kesib oladi.

Endoskopning fotosistemiya fotosuratni olishga imkon beradi. Endoskop tasvirni kattalashtirib ko‘rsatadigan yoritish sistemasi va ko‘pincha optik sistema bilan ta‘minlangan metal naydan iborat bo‘ladi. Bronx bo‘shlig‘i bronxoskop asbobi yordamida, qizillo‘ngach, me‘da va 12 barmoq ichak ezofagogastroduodenofibroskop asbobi yordamida, yo‘g‘on ichak va to‘g‘ri ichak rektoskop yordamida tekshiriladi, qovuq sistoskop yordamida, qorin bo‘shlig‘i laparoskop asbobi yordamida tekshiriladi. Endoskop yordamida ko‘pgina kasalliklarni barvaqt aniqlash imkonini beradi. Endoskopni mutaxassis shifokor mahalliy yoki umumiy og‘riqsizlantirish orqali bajaradi.

Ultratovush tekshirish UTT.(UZI)

Hozirgi vaqtda ichki a'zolari-buyraklar, jigar, o't pufagi, taloq, chanoq a'zolari kasalliklarini aniqlashda ultratovush yordamida tekshirish qo'lanilmoqda. Bemorlar maxsus tayyorgarliksiz tekshirishdan o'tadilar. Bu usul eng oxirgi fan yutuqlaridan biri bo'lib, bemor va tibbiyot xodimlari uchun zararsiz usuldir.



Radioizotop-tekshirish-Skanirlash.

Bu usul jigar, taloq, buyraklar, qalqonsimon bezni tekshirishda qo'llaniladi. Bu usul yod izotopini yoki boshqa radioizotopni venaga yuborib, uning nurlanishini qayd qilish ya'ni

skanirash usulidir. Maxsus asbob skaner yordamida qogʻoz yoki fotoplyonkaga aʼzolar koʻrinishi suratga olinadi, olingan suratlar-skanogrammalar deyiladi.


ELEKTROKARDIOGRAFIYA.

ELEKTROKARDIOGRAMMA-bu yurak muskuli ishlayotganida hosil boʻlgan elektr impulslarini aks ettiruvchi egri chiziqdır. Elektrokardiogramma elektrokardiograf yordamida qogʻozga yoki fotoplyonkaga tushiriladi. Butun gavdaga tarqaluvchi yurak toklari EKGsi gavdaning turli qismlari (koʻkrak qafasi, qoʻl va oyoqlar)ga oʻrnatilgan va elektrokardiografa ulangan elektrodlar bilan yozib olinadi. EKG yordamida yurak ritmining turli oʻzgarishlari, yurakning ishemik kasalliklari, miokard infarktining xarakterli bosqichlari aniqlanadi. Yurak kasalliklari diagnostikasida EKG tekshiruvu boshqa tekshiruv usullari ichida yetakchi oʻrinni egallaydi.



Mamagrafiya koʻkrak bezini nurlar orqali tekshitish. Maqsad onkologik kasallikni erta aniqlash.





I. Asosiy adabiyotlar:

1. G'.O. Haydarov: "Ichki kasalliklar" 2002 yil
2. Qoroboyev R.A. "Ichki kasalliklar" 1997 yil
3. M.F. Ziyayeva "Qariyalarda hamshiralik parvarishi".

II. Qo`shimcha adabiyotlar:

1. M.F. Ziyayeva: "Terapiya" 2007 yil
2. Y.L. Arslonov "Ichki kasalliklar" 2013 yil
3. Qarshiboyeva: "Terapiyada hamshiralik ishi"
4. G. Rajabov "Gerontologiya"

III. Internet saytlari:

1. WWW. Ziyonet. uz
2. WWW.tibbiyot.uz